



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING QARORI

2026-yil 5-iyun

N° 2137

Ayrim sudyalarni lavozimidan ozod etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 79-moddasi va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunining 7, 17-moddalariga muvofiq:

Kuzibayev Inom Raxmatovich - sog'lig'ining holatiga ko'ra uzoq vaqt mobaynida sudyalik vazifasini bajarishga qodir bo'lmay qolganligi uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 8-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Farg'ona viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona tumanlararo sudi raisining o'rinbosari lavozimidan ozod etilsin;

Jabborov Bahrillo Salimovich - odil sudlovni amalga oshirish chog'ida qonuniylikni buzganligi hamda sud ishini tashkil etishda beparvoligi oqibatida yo'l qo'ygan kamchiliklari uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 10-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Buxoro viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Jondor tuman sudining tergov sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Shukurov Akmaljon Shokirovich - yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov